

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

MIRZAOLIMOVA MOXIZAR MUXAMATKARIM QIZI

***DOREMA DON* (APIACEAE LINDL.) TURKUMI AYRIM TURLARINING
MORFO-ANATOMIK VA EKO-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Mirzaolimova Moxizar Muxamatkarim qizi

Dorema Don (Apiaceae Lindl.) turkumi ayrim turlarining morfo-anatomik va eko-geografik xususiyatlari.....3

Мирзаолимова Мохизар Мухаматкаримовна

Морфо-анатомические и эко-географические особенности некоторых видов рода *Dorema* Don (Apiaceae Lindl.).....21

Mirzaolimova Mokhizar Mukhamatkarim kizi

Morpho-anatomical and eco-geographical features of some species of the genus *Dorema* Don (Apiaceae Lindl.).....39

E’lon qilingan ishlar ro’uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

MIRZAOLIMOVA MOXIZAR MUXAMATKARIM QIZI

***DOREMA DON* (APIACEAE LINDL.) TURKUMI AYRIM TURLARINING
MORFO-ANATOMIK VA EKO-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/B1016 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipova Vasila Qo'ysinovna
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Xamrayeva Dilovar Tolibjonovna
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rudov Aleksandr Vaxtangovich
biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 14-mart kuni soat 15³⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (69-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 26- fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil 26- fevraldagi 8-raqamli reestr bayonnomasi)



K.Sh. Tojibayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, b.f.d., akademik

U.H. Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, PhD.,
katta ilmiy xodim

H.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Biologik xilma-xillikni saqlash tabiatni muhofaza qilishning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, bunga butun dunyoda katta e‘tibor qaratilmoqda. Shunga qaramay, so‘nggi o‘n yilliklarda sayyoramizdagi ekologik vaziyatning yomonlashuvi tufayli turlar xilma-xilligining keskin qisqarishi kuzatilmoqda. Bu hodisaning asosiy sabablari global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, ekologik ofatlar va insonning intensiv sanoat faoliyati bilan bog‘liq. Ta‘kidlash joizki, har qanday taksonning yo‘qotilishi nafaqat dunyo florasining tarkibiy qismini, balki biologik faol birikmalar manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan potensial qimmatli genetik resursning yo‘qotilishini anglatadi.

Dunyoda foydali qiymatga ega o‘simlik xom-ashyosini aniqlash va dorivor o‘simlik mahsulotlarini standartlashtirishda morfologik va anatomik tuzilishga xos bo‘lgan vegetativ va generativ organlarning xususiyatlariga asoslangan diagnostikaga alohida e‘tibor beriladi.

Apiaceae oilasiga mansub *Dorema* turkumi dorivor salohiyatga ega istiqbolli turlarni o‘z ichiga oladi va kamyob o‘simlik sifatida tasniflanadi. Ushbu turkum sistematik nuqtai nazardan murakkab hisoblanadi. O‘zbekistonda O‘rta Osiyo endemi bo‘lgan ikkita turi tarqalgan: *Dorema microcarpum* va *Dorema sabulosum*. Antropogen bosimning kuchayishi natijasida ushbu kamyob turlarning tabiiy yashash joylarida populyatsiyasi kamayib bormoqda. Bu o‘simliklarning biologiyasini har tomonlama o‘rganish dolzarb vazifadir. Ularning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muhofaza qilish usullarini ishlab chiqish nafaqat fan uchun qimmatli turlarni himoya qilish, balki ularning moslashish imkoniyatlarini chuqurroq tushunish, shuningdek ularni introduksiya istiqbollari bashorat qilish imkonini beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda o‘simlik dunyosi obyektlarini muhofaza qilish, biologik xilma-xilligini saqlash va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Atrof-muhitni muhofaza qilish va davlat organlarining ekologik nazorat sohasidagi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi¹ Qarorda “biologik xilma-xillikni tiklash, ko‘paytirish va saqlashning rag‘batlantirish tizimi va aniq mexanizmlarini joriy etish” vazifasi belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, *Dorema* turkumining kamyob va endem vakillari populyatsiyalarining qisqarish sabablarini aniqlash, tarqalish xaritalarini yaratish hamda morfologik, anatomik biologik va ontogenetik xususiyatlarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida¹ “... Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhit ifloslanishini oldini olish va tabiatni muhofaza qilish borasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. 2018-yil 19-dekabrda №1034-son “O‘zbekiston Respublikasi Qizil

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2019-yil 11-iyundagi 484-son “2019-2028-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Dorema* turkumi Apiaceae Lindl oilasining kichik turkumi hisoblanadi. Bu turkumning ayrim turlarining sistematikasi, ekologiyasi va tarqalishi B.M. Kozo-Polyanskiy (1921), D.I. Litvinov (1922), K.M. Koroleva (1951), Ye.P. Korovin (1959), M.G. Pimenov (1983) ishlarida o‘z aksini topgan. Turkum turlari haqidagi birinchi monografiya 1988-yilda M.G. Pimenov tomonidan nashr etilgan. M.G. Pimenov va Ye.V. Kluykov va b. (2002) ishlarida aks ettirilgan morfologiya va eko-geografiyaga oid so‘nggi ma‘lumotlar ancha eskirgan.

Shuningdek, xorijiy olimlar tomonidan *Dorema* turkumi ayrim turlarining fitokimyosi, farmakologiyasi, etnotibbiyoti va molekulyar biologiyasi hamda *in-vitro* usulida ko‘payishini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan: N. Irvani, M. Solouki et al. (2009), Morteza Yousefzadi, Mahnaz Heidari et. Al. (2011), Seyed Ali Reza Hosseini et al. (2013), Saeideh Shafiee-Nick et Hamid Ejtehadi (2014), Farzaneh Naghibi et.al. (2015), Mehrnoush Panahi, Łukasz Banasiak, et. al. (2015), Elaheh Zibae et al. (2018), Mahsa Mehrpour et al. (2020), Elaheh Zibae, Mohammad Sadegh Amiri, et. al (2020), Mashhad Javad Mottaghipisheh et al. (2021), Radosław Puchałka, Krzysztof Spalik et.al (2023).

O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar davomida K.Sh. Tojibayev va N.M. Naraliyeva (2012) ishlarida *Dorema microcarpum* turining yangi o‘sinh maydonlari haqida ilmiy ma‘lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, *Dorema sabulosum* turining ayrim qismlari anatomiyasi D.T. Xamrayeva va boshq. (2018) tadqiqotlarida o‘rganilgan. Biroq, yuqoridagi ma‘lumotlar turlarning sistematikasi, geografiyasi, anatomiyasi, morfologiyasi va muhofaza choralarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bera olmaydi. O‘zbekistonda илгари *Dorema* turkumi turlari uchun maqsadli dala tadqiqotlari o‘tkazilmagan, chunki ushbu turkumga yetarlicha e‘tibor berilmagan. Shu nuqtai nazardan, turkum sistematikasi, tur tarkibini aniqlash, izohli konspektini yaratish, GAT xaritalari yordamida tarqalishi bo‘yicha yangi bilimlarni shakllantirish, ilm-fan uchun qimmatli bo‘lgan kamyob o‘simliklarni muhofaza qilish choralarni yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bu borada, jumladan, kamayib va yo‘qolib borayotgan qimmatli, dorivor va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarning qiyosiy-anatomik tuzilishini *in vitro*, *in situ* va *ex situ* usullarida o‘rganish, genofondini saqlab qolish, shuningdek, mavjud ma‘lumotlarni chuqur tahlil qilish va maqsadli dala tadqiqotlarini olib borish,

gerbariy namunalari yig'ish, geografik tarqalishini o'rganish, yangi o'sish joylari aniqlash va turlarni saqlab qolishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining F5-FA-0-64792 "O'zbekiston florasidagi polimorf oilalarning taksonomik reviziyasi" (2021–2025) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *D. microcarpum* va *D. sabulosum* turlarini saqlab qolishning dolzarbligi bilan bog'liq holda ularning eko-geografik, morfo-anatomik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- TASH fondida saqlanayotgan *Dorema* turkumi gerbariy namunalari tahlil qilish va *D. microcarpum* turining ekogeografik tahlilini o'tkazish;

- *Dorema* turkumi turlari vegetativ va generativ organlarining morfo-anatomik xususiyatlarini ularning ekologik yashash sharoitiga moslashuvi kontekstida tavsiflash;

- *Dorema* turkumi o'rganilayotgan turlarining meva va barglarining morfologik va anatomik belgilarini *Ferula* turkumining ekologik jihatdan yaqin turlari bilan taqqoslash;

- ikkita o'rganilayotgan turni saqlab qolish uchun *in vitro* sharoitida o'simlikka ko'paytirishning samarali usullarini ishlab chiqish;

- bioiqlimiy modellashtirish yordamida turlarning potensial tarqalish areallarini aniqlash;

- genofondni *ex-situ* sharoitida saqlab qolish maqsadida tirik kolleksiyasini yaratish va *D. microcarpum* kamyob turini saqlab qolish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: *Dorema* turkumiga mansub *D. microcarpum* va *D. sabulosum* turlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti: *Dorema* turkumi turlarining morfologiyasi, anatomiyasi, geografiyasi, biotexnologik jihatlari, ekologik xususiyatlari hamda muhofaza qilish va saqlab qolishning ilmiy asoslari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada floristik tadqiqotlarning marshrutli va yarim statsionar usullari, biomorfologik va qiyosiy-anatomik tahlil, ekologik-geografik yondashuvlar, mikroklonal ko'paytirishning klassik usullari hamda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, biologik obyektlarning GAT xaritalari va ma'lumotlar bazalarini yaratish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Farg'ona vodiysi Namangan viloyatining turli hududlarida tarqalgan *D. microcarpum* kamyob turining yangi o'sish maydonlari aniqlangan;

- ilk bor o'rganilayotgan turlarning vegetativ va generativ organlarining anatomik tuzilishi batafsil o'rganilgan va tavsiflangan;

- *Dorema* va *Ferula* turkumlari ayrim turlarining morfo-anatomik belgilarini qiyosiy tahlili asosida turkum mustaqilligini asoslovchi sezilarli farqlar aniqlangan;

- tadqiqot natijalaridan “O‘zbekiston florasini”ning beshinchi jildida *Dorema* turkumini batafsil o‘rganish, turlarning geografik tarqalishini aniqlashtirish va GAT xaritalarini yaratishda foydalanilgan;

- ilk bor *Dorema* turkumiga mansub turlarni *in vitro* sharoitida birlamchi eksplant sifatida murtakdan ajratib olingan ildiz, gipokotil va urug‘pallabarg hamda zigotali embrionlardan foydalanib o‘stirishning samarali usullari ishlab chiqilgan;

- global iqlim o‘zgarishining turli ssenariylari asosida turlarning potensial areallari baholangan, raqamli xaritalar yaratilgan va ularning tarqalishiga ta’sir etuvchi asosiy bioiklimiy omillar aniqlangan;

- *D. microcarpum* kamyob turining populyatsiyalarini muhofaza qilish choralari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari shundan iboratki, olingan natijalar o‘simlik qoplarni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish tizimini ishlab chiqish hamda monitoring olib borishda qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi. Qizil kitobga kiritilgan *D. microcarpum* turini muhofaza qilish choralari va ko‘paytirish usullari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Dorema turkumining o‘rganilayotgan turlarining tirik kolleksiyasi Botanika bog‘ida *ex situ* sharoitida yaratilgan, bu esa Qizil kitobga kiritilgan *D. microcarpum* turini saqlab qolish imkoniyatini tasdiqlagan;

O‘zbekiston florasidagi *Dorema* turkumining ikki turidan 150 ga yaqin gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariysi fondiga topshirilgan va TASH kolleksiyasi to‘ldirgan;

D. microcarpum populyatsiyalarining holati Xalqaro Tabiatni Muhofaza Qilish Ittifoqi (XTAI) mezonlariga muvofiq baholanib, tur Xalqaro Qizil ro‘yxatga kiritishga tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy usullarning qo‘llanilganligi va ular asosida olingan ma’lumotlarning tahlil qilinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi hamda yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, tadqiqotning amaliy natijalari tabiatni muhofaza qilishga ixtisoslashgan vakolatli davlat tashkilotlari faoliyatiga muvaffaqiyatli joriy etilgan. Bundan tashqari, dala tadqiqotlari davomida yig‘ilgan gerbariy namunalari Moskva (MW), Sankt-Peterburg (LE) va O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) da saqlanayotgan namunalardan taqqoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *Dorema* turkumini “O‘zbekiston florasini” ning beshinchi jildiga kiritish, turlarning geografik tarqalishini aniqlashtirish, GAT xaritalarini yaratish, shuningdek, kamyob va endem turlarning morfo-anatomik tuzilishi, bioekologiyasini o‘rganish va TASH O‘rta Osiyo bo‘limi kolleksiyasini *Dorema* turkumining gerbariy namunalari bilan to‘ldirishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar monitoring olib borishda o‘simlik qoplarni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish tizimini boyitish va ishlab chiqishda qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat

qiladi. *D. microcarpum* turini muhofaza qilish choralari va ko'paytirish usullari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dorema turkumiga mansub turlarni *in vitro* sharoitida o'stirishning samarali usullari ishlab chiqilgan bo'lib, birlamchi eksplant sifatida murtakdan ajratib olingan ildiz va gipokotil hamda birlamchi eksplant sifatida laboratoriya sharoitida zigotali murtaklardan foydalanilgan. *Dorema* turkumi o'rganilgan ikkita turini mikroklonal ko'paytirish protokollari, shu jumladan ozuqaviy muhitning mineral asoslarini tanlash va ekzogen o'sish regulyatorlarining kombinatsiyasi va kontsentratsiyasi optimallashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston florasida o'sadigan *Dorema* turkumi turlari ustida tadqiqotlar olib borish natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston florasida tarkibida uchraydigan *Dorema* turkumi turlarining O'zbekiston Milliy gerbariyasi fondiga taqdim etilgan gerbariy namunalari TASH O'rta Osiyo bo'limi kolleksiyasini yanada boyitgan. O'zbekiston florasida bo'yicha axborot-tahliliy tizimiga turlarning taksonomiyasi, ekogeografiyasi va GAT asosidagi nuqtaviy xaritalar bo'yicha yangi ma'lumotlar joriylashtirilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 29-yanvardagi 4/1255-207-son ma'lumotnomasi). Natijada, zaif, xavf va tahdid ostida bo'lgan kamyob va yo'qolib borayotgan turning tarqalish maydonlarini aniqlash, muhofaza chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkonini bergan;

Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida tarqalgan kamyob va endem *D. microcarpum* turining generativ organ (urug') idan ko'paytirishning samarali usuli ishlab chiqilgan tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 29-yanvardagi 4/1255-207-son ma'lumotnomasi);

Dorema turkumi turlariga mansub 146 ta gerbariy namunalari asosida yaratilgan ma'lumotlar bazasi Bioxilma-xillik bo'yicha global ma'lumotlar tizimiga (www.gbif.org, GBIF) joriylashtirilgan (Global Biodiversity Information Facility www.gbif.org ning 2024-yil 12-yanvardagi ma'lumotnomasi). Bu O'zbekiston hududida *D. microcarpum* ning tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotlardan xalqaro miqyosda foydalanishni ta'minlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprotatsiya qilish. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan

Tadqiqot natijalarini nashr etish. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy maqola chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shu jumladan 4 tasi respublika1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 124 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tasniflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘rganilish darajasi, tadqiqot obyekti va metodlari”** deb nomlangan birinchi bobida *Dorema* turkumining o‘rganilish tarixi, zamonaviy tadqiqotlar tahlili, turkum bo‘yicha oldin o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili natijalari keltirilgan. O‘rta Osiyodagi birinchi maqsadli ish M.G. Pimenovning geobotanik tadqiqotlari bo‘ldi, u o‘zining *Dorema* Don turkumi monografik reviziyasida 12 turga oid ma‘lumotlarni keltirib o‘tgan, shuningdek bobda obyektlar va tadqiqot usullari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“*Dorema microcarpum* turining Farg‘ona vodiysi bo‘ylab eko-geografik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida gerbariy namunalari, geografik tarqalishi va maqsadli dala tadqiqotlari natijasida aniqlangan yangi tarqalish maydonlari haqidagi ma‘lumotlar tahlili yoritilgan.

Bobning birinchi bo‘limida O‘zbekiston Milliy gerbariysida (TASH) 2022-yilgacha saqlangan barcha 97 ta namunalar tahlili berilgan (1-rasm). Tahlil natijasida A.F. Ioffe tomonidan 1928-yilda Farg‘ona vodiysidan yig‘ilgan *D. microcarpum* turining tip namunasi TASH fondida saqlanayotganligi aniqlandi.



1- rasm. *D. microcarpum* turining gerbariy namunalari tahlili

Hozirgi vaqtda gerbariy namunalari fondi sezilarli darajada kengaytirildi va 1927 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab olgan to‘rtta asosiy toifaga tasniflangan 279 nusxani o‘z ichiga oladi:


1927-1983 yillar: Bu davrda O‘zbekiston florasini va O‘rta Osiyo o‘simliklarining aniqlagichi jildlarini tavsiflash uchun bir qator dala tadqiqotlari olib borilgan va ko‘plab o‘simlik turlari o‘rganilgan. Turkum uchun birinchi gerbariy namunalari terilgan va umumiy foizdan 30% ni tashkil qiladi.

1984-1988 yillar: ko‘rib chiqilayotgan xronologik davrda gerbariy namunalari kam miqdorda to‘plangan. Bu esa floristik tadqiqotlar o‘tkazilmaganligi va yig‘ilgan namunalarni TASH gerbariysi fondiga kiritishni nazorat qilishning sustligi bilan izohlanadi. Shuningdek, bu davr M.G. Pimenovning *Dorema* turkumiga bag‘ishlangan monografiyasining nashr etilishiga to‘g‘ri keladi. Bu davr namunalari ularning umumiy sonining atigi 4 foizini tashkil etadi.

2012-2022-yillar: yig‘ilgan gerbariy namunalarning ko‘payishi Farg‘ona vodiysida floristik tadqiqotlar ko‘lamining kengayishi bilan bog‘liq. Akademik K.Sh. Tojibayev va boshqa olimlar tomonidan Chap darasi va Chust-Pop adirlaridan *D. microcarpum* turining yangi o‘sinh nuqtalari aniqlangan. Bundan tashqari, H.R. Hoshimov tomonidan Farg‘ona vodiysining shimoliy tog‘oldi hududlarida batafsil tadqiqotlar olib borilgan. Bu davrga jami namunalarning 24% to‘g‘ri keladi.

2022-2024: Bu davr dissertant tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni qamrab oladi va umumiy gerbariy namunalarning 42% ni tashkil qiladi.

Bobning ikkinchi qismida ilmiy manbalar va gerbariy namunalari asosida *D. microcarpum* turining geografik o‘rni va tarqalishi haqidagi ma‘lumotlar aniqlanib, tasvirlangan. G‘arbiy Tyan-Shan va Farg‘ona okruglarida olib borilgan tadqiqotlar asosida bir qancha yangi o‘sinh joylari topilgan va ular asosida to‘liq ma‘lumotlar dissertatsiyada batafsil bayon etilgan. Bundan tashqari, 150 dan ortiq gerbariy namunalari to‘plangan va yangi konturlar bilan to‘ldirilgan tarqalish xaritasi taqdim etilgan (2-rasm).




2-rasm. *D. microcarpum* turining tarqalish xaritasi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu turning asosiy o‘shish joylari Farg‘ona vodiysining aholi zich joylashgan hududlarida ekanligi aniqlandi. Yangi areallar aniqlanganligiga qaramasdan, populyatsiyalarning joylashuvi va holatini monitoring qilish, turning biologik xususiyatlarini o‘rganishni davom ettirish, uni saqlab qolish, madaniylashtirish usullarini ishlab chiqish va yangi yashash joylarini faol izlash qat’iy tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning **“Dorema turkumi turlarining vegetativ va generativ organlarining morfo-anatomik tuzilishi”** deb nomlangan uchinchi bobi o‘simlik organlarining morfo-anatomik tuzilishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Birinchi bo‘limda o‘rganilayotgan turlarning bargi, generativ novdasi va ildizining morfo-anatomik xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.

Dorema turkumi turlari barg plastinkasining bo‘linishi, tuklanishning mavjudligi va ranglardagi farqlari bilan ajralib turadi. Mezofil tuzilishining umumiy izopolisad tipiga qaramasdan, har bir turning yashash sharoitlariga bog‘liq diagnostik xususiyatlari aniqlangan.

Ikkala turda ham epiderma to‘g‘ri, yo‘g‘onlashgan tashqi devorli, hujayra devorlari to‘g‘ri burchakli bir qatordan joylashgan bo‘ladi. Barg mezofili bargning ustki va ostki tomonida hosil bo‘lgan ustunsimon parenximaning kuchli rivojlanishi tufayli zich tuzilishga ega (3-rasm). Bargning ustunsimon parenximasi ikki-uch qator joylashgan bo‘lib, bargning uchki qismigacha har ikkala tomonida ham o‘tkazuvchi bog‘lamlar saqlanib qolgan. Asosiy tomir yaxshi rivojlangan bir tomonlama bo‘rtiq hosil qilib, ko‘ndalang kesmasida yirik va mayda kollateral o‘tkazuvchi bog‘lamlar joylashgan. Kollenxima bilan o‘tkazuvchi bog‘lamlar orasida metabolism mahsulotlari (qatronlar) ga ega bo‘lgan, yumaloq yoki noxsimon shaklli sxizogen ajratma kanallar joylashgan (1-jadval).



3-rasm. Barg plastinkasining anatomik tuzilishi a – *D. microcarpum* va b – *D. sabulosum*

***Dorema* turlari bargining miqdoriy ko'rsatkichlari**


Ko'rsatkichlar		<i>D. microcarpum</i>	<i>D. sabulosum</i>
Barg bo'lagi uzunligi, cm		1,5-2	12-15
Eni, cm		0,4-0,6	1,5-3
Barg plastinkasi qalinligi, mkm		515±4,72	335±2,62
Mezofil qalinligi, mkm		470±3,45	295±1,78
Ustki epidermis hujayrasi balandligi		23,5±0,19	27,5±0,31
Ostki epidermis hujayrasi balandligi		29,5±0,36	25,5±0,12
Barg og'izchasi o'lchami, mkm		38,5±0,52	33,5±0,36
Parenxima o'lchami, mkm		80±0,98	65±0,74
Ustunsimon parenxima	balandligi, mkm	72±0,81	70±0,73
	eni, mkm	14,5±0,12	10,5±0,15
O'tkazuvchi bog'lam (O'B)	O'B soni	4	5
	nay tola soni	16	18
Ajratma kanal diametri	yirik	32,5±0,43	93±1,02
	mayda	19±0,28	60±0,84

Barg bandchasining tuzilishi ziradoshlar oilasiga xos bo'lgan murakkab tuzilishga ega (Metcalf, 1957). *D. microcarpum* turida barg bandchasi ko'ndalang kesimi shakli qirrali, dumaloq-uchburchak yoki novsimon, adaksial qismi botiqroq, abaksial qismi kuchli qavariqli, tukli, chetlarida ikkita adaksial bo'rtiqlar joylashgan; *D. sabulosum* turida barg bandi cho'zinchoq-ovalsimon, adaksial qismida ikkita qo'shilib ketgan bo'rtiqlar bo'lib, sertuk. Qirralarning epidermasi ostida 8-12 qator burchakli kollensima mavjud. Undan keyin 3-4 qator xlorofillsimon parenxima hujayralari joylashgan. Barg bandchasining asosiy qismini parenxima egallaydi, o'tkazuvchi bog'lam o'lchami jihatidan har xil bo'ladi. Har bir yirik o'tkazuvchi bog'lam yaqinida bir nechta ajratma kanallar joylashgan.

Bargning anatomo-morfologik tahlili natijasida kseromorf belgilar aniqlangan: hujayralarning maydaligi, tashqi devorlar qalinlashganligi, ustunsimon hujayra indeksining yuqori ko'rsatkichi. *Dorema* turkumi turlari barglarining anatomik tuzilishida mezofit va kserofit belgilarining ikki taraflama ekologik tabiati va keng diapazonli moslashish imkoniyatlari bilan uyg'unlashgan. *Dorema* turkumi turlari bargining morfo-anatomik belgilari *Ferula* turkumidan farqlanishi aniqlandi (V.K. Sharipova ma'lumotlari asosida, 2017). *Dorema* turkumi turlarida trixomalar jingalak, *Ferula* turkumida esa oddiy va bigizsimon. Mezofil tipi *Dorema* da izopolisad, *Ferula* da esa izolateral-palisad. *Dorema* da palisad hujayralari zich va uzluksiz joylashgan bo'lsa, *Ferula* da markaziy tomir atrofida ustunsimon qavatining uzilishi kuzatiladi.

O'rganilgan turlar monokarp bo'lib, generativ novdasining o'sishi monopodial, dastlab qisqargan vegetativ, gullash yilida esa yer ustki ortotrop hisoblanadi. *Dorema* turkumi turlarida baland va yo'g'on generativ novdaning po'stlog'i qalinligi, yirik epidermaning tashqi devori yo'g'onlashganligi, kollensima mavjudligi, nay tolalar diametrining yirikligi, shuningdek, po'stloq va o'zak parenximasi rivojlanganligi bilan tavsiflangan (4-rasm). Bu xususiyatlar kserofit yashash muhiti, jumladan, Farg'ona vodiysining adir mintaqalari va Buxorodagi Qizilqum cho'li sharoitlariga moslashganligi hisoblanadi.

Yuqori harorat va namlik past bo'lgan sharoitda ildizlarning anatomik tuzilishi o'simliklarning adaptiv mexanizmlarini tushunish va ularni saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. O'rganilgan turlarning ildizlari jigarrang, ko'p qatlamli burishgan po'kak to'qima bilan qoplangan. Ildiz bo'yni qurigan barg tolalari bilan qoplangan. Po'stloq hujayralari yirik, dumaloq va cho'zinchoq shaklda bo'lib, kraxmal donachalari bilan to'lgan. Ildizning markaziy qismi ksilema va floemadan iborat o'tkazuvchi tizimdan iborat (4-rasm). Ildizlarning ko'p qatlamli parenximasi qari va yosh ajratma kanallar, shuningdek kraxmal donalarini o'z ichiga oladi. Ildizning mikroskopik tahlili uchta asosiy zona mavjudligini ko'rsatdi: qoplovchi to'qima, ikkilamchi po'stloq va markaziy o'q silindr. Ajratma kanallar ildizning funksional o'ziga xosligini aks ettirib, o'lchami va joylashishi bilan farqlanadi. O'rganilayotgan *Dorema* turlarining qalin ildizlari zahira va o'tkazish funksiyalarini bajarishga moslashtirilgan murakkab anatomik tizimdir.




4-rasm. Generativ novda va ildizning anatomik tuzilishi (a, c) - *D. microcarpum* va (b, d) - *D. sabulosum*

Uchinchi bobning ikkinchi bo'limi meva va murtakning morfologiyasi va anatomik tuzilishiga bag'ishlangan. *Dorema* turlarining mevasi osma meva bo'lib, pishganida shoxsimon ayri ustunga (karpofor) osilgan ikkita merikarpga bo'linadi. Merikarplar ipsimon yoki deyarli sezilmaydigan dorsal va qanotsimon qirrali, *D. microcarpum* turida yumaloq oval yoki elliptik, *D. sabulosum* turida yassi siqilgan,

cho‘zinchoq ovalsimon. Perikarp 3 qavatdan iborat: ekzokarp, mezokarp va endokarp. Ekzokarp merikarpni orqa yuzasi bilan o‘rab turadi. Mezokarp bir-biriga zich yopishgan, kuchli deformatsiyalangan bir necha qavat hujayralardan iborat. Endokarp bir qator hujayralardan iborat (5-rasm).

Funikulus yirik o‘tkazuvchi bog‘larga ega. Ustunning qirrasida dumaloq-uchburchak shaklida bo‘lib, nay tolali bog‘lam devorlarining spiral qalinlashuviga ega bo‘lgan o‘tkazuvchi bog‘lamini o‘z ichiga oladi va gidrotsit hujayralari bilan o‘ralgan. Endosperm yaxshi rivojlangan, yetuk urug‘ning katta qismini egallaydi, hujayralari yirik, qalin devorli bo‘ladi. Mevaning perikarpida *Dorema* turkumining ikkala turida ham faqat ikki xil sekretor tuzilishga ega: lojbinkasimon va komissural. O‘rganilgan turlarning mevalari uchun diagnostik ahamiyatga ega bo‘lgan morfologik va anatomik belgilar aniqlangan. Morfologik xususiyatlarga merikarpning siqilganligi va tuklanish darajasi, merikarp yuzasining tuzilishi va rangi, shuningdek qirralarning mavjudligi yoki yo‘qligi kiradi. Anatomik belgilarga ko‘ndalang kesimda merikarpning shakli, mezokarp qavatlarining parenximlik darajasi, gipendokarpning yo‘qligi, endokarpning yirik hujayraliligi va bir qavatlilik, ajratma kanallarning turi va joylashuvi, endosperm va funikulus shakli kiradi.

Dorema turkumining o‘rganilayotgan ikkala turlarini murtagi to‘g‘ri, 2 ta plastinkasimon urug‘pallabarg, urug‘palla naychasi, kalta gipokotil va radikuladan iborat. Urug‘pallabarglar epidermasi bir qatorli, yirik hujayrali, tashqi devori qalinlashgan. Urug‘palla naycha dumaloq shaklga ega, epiderma ham bir qatorli va tashqi devori qalinlashganligi bilan ajralib turadi. Prokambial bog‘amlar (urug‘palla izlari) 6 tadan bo‘lib, har birida bittadan ajratma kanal kuzatiladi. Ikkita markaziy bog‘amlarning birikish sohasida oltita qo‘shimcha ajratma kanal joylashadi. Ko‘ndalang kesimda radikula yumaloq shaklga ega, ajratma kanallar bo‘lmaydi (5-rasm).



5-rasm. a – meva; b - murtag; c – *D. microcarpum* mevasining ko‘ndalang kesimi.

Dorema turkumi turlari mevalari *Ferula* turkumi turlari mevalaridan farq qilishi aniqlangan. *Dorema* turkumi turlarining farqli anatomik belgilari mezokarp qatlamlarining parenximlik darajasi, gipendokarpning yoʻqligi, endokarpning yirik hujayraliligi va bir qavatligi, ajratma kanallarining turi va joylashuvi bilan ifodalangan.


Dissertatsiyaning “*Dorema microcarpum* va *D. sabulosum* turlarini koʻpaytirish uchun biotexnologik usullarni qoʻllash” deb nomlangan toʻrtinchi bobida *in vitro* sharoitida oʻstirish uchun biotexnologik usullari yordamida oʻrganilayotgan turlarning toʻqima kulturalarida bilvosita somatik embriogenez va organogenez orqali oʻsimliklar regeneratsiyasi protokollari bayon etilgan.

Bobning birinchi boʻlimida kamyob va endem turlarni saqlab qolish uchun qoʻllaniladigan biotexnologik usullar yoʻqolib borayotgan turlar genofondini saqlab qolishda asosiy rol oʻynaydi, nafaqat mavjud genetik resurslarni saqlab qolish, balki ularni samarali boshqarishga yordam beradi. Genetik banklar va hujayra kulturalari kolleksiyalarini yaratish texnologiyalarini ishlab chiqish oʻsimliklarning genetik xilma-xilligini ishonchli saqlash imkonini beradi. Biotexnologiya va tabiatni muhofaza qilish chorrahasida yangi ilmiy yoʻnalish - oʻsimliklarni saqlash texnologiyasi shakllandi. U anʼanaviy *ex situ* va *in situ* saqlash sharoitini almashtirmaydi, balki toʻqimalarni oʻstirish, molekulyar-genetik tahlil, urugʻ va DNK banklarini yaratish, kriokonservatsiya va boshqa ilgʻor texnologiyalar kabi innovatsion vositalarni taqdim etish orqali ularni toʻldiradi, laboratoriya sharoitida yil davomida ishlash va oʻsimliklarni maʼlum bir muddatda chiqarishni rejalashtirish imkonini beradi.

Uchinchi bobning ikkinchi boʻlimi “*In vitro* sharoitida oʻsimliklarning morfogenezi va regeneratsiyasi yoʻli xususiyatlari” deb nomlanib, unda quyidagilar batafsil asoslab berilgan:

Morfogenez - bu oʻsimliklarning shakllanishi bilan bogʻliq murakkab jarayon boʻlib, *in vitro* kulturasida morfogenezning faqat ikkita yoʻli butun oʻsimlikning *de novo* regeneratsiyasiga olib keladi: embriodogenez - somatik embriogenez va novdalar organogenezi, keyinchalik rizogenez - gemmorizogenez (Phillips, 2004). Morfogenezning ikkala yoʻli kallus hosil boʻlishining oraliq bosqichi (bilvosita regeneratsiya) orqali ham, uni chetlab oʻtib (toʻgʻridan toʻgʻri regeneratsiya) ham sodir boʻlishi mumkin (Hicks, 1980).

D. microcarpum uchun kallus induksiyasi uchun unib chiqqan urugʻ segmentlari, xususan, gipokotil (50-60%) va ildiz (70-80%) optimal eksplantlar boʻlib chiqdi. Somatik embriogenezning eng yuqori chastotasiga ($66,67 \pm 6,67\%$) 2,4-D (0,5 mg/l) + kinetin (0,5 mg/l) oʻsish regulyatorlari kombinatsiyasidan foydalanilganda erishildi. Regeneratsiya jarayoni 5-6 oy davomida gipokotilda shakllangan bitta eksplantndan 5-7 tagacha regenerant oʻsimliklarni olish imkonini berdi, bu usulning yuqori samaradorligini koʻrsatadi (6-rasm).



6-rasm. *D. sabulosum*: A-zigotali murtaqlar eksplantlarida kallus induksiyasi, *D. microcarpum*: B-somatik embrionlaridan rivojlangan o'simlik.

D. sabulosum uchun eksplant sifatida zigotali murtaqlar eng samarali bo'lib chiqdi va ular 70-80% kallusogenezni ko'rsatdi (6-rasm). Regeneratsiya jarayoni bilvosita organogenezga asoslangan bo'lib, bunda novdalar regeneratsiyasining eng yuqori chastotasiga ($66,7 \pm 6,7\%$) ISK (0,5 mg/l) va BAP (0,5 mg/l) kombinatsiyasidan foydalanilganda erishildi. Regeneratsiya natijasida bir eksplantidan 7-8 oy davomida 2-3 ta regenerant o'simlik hosil bo'ldi, bu ko'rsatkich esa *D. microcarpum* ga nisbatan pastroq hisoblanadi.

O'rganilayotgan ikki turdagi ushbu farqlar morfogenezning turga xos xususiyatlarini va ko'paytirish usullarini optimallashtirish uchun individual yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Biroq, somatik embriogenezning induksiyasi chastotasini va o'simliklarning somatik murtaqlardan tiklanish tezligini oshirish va regeneratsiyalangan o'simliklarni *ex vitro* sharoitida iqlimlashtirish uchun o'stirish sharoitlarini aniqlash bo'yicha keyingi tadqiqotlar talab etiladi.

Beshinchi bobning "***Dorema* turkumi turlarining bioiqlimiy modellashtirish**" deb nomlangan birinchi bo'limida o'rganilgan turlarning turli davrlarda (so'nggi oraliq muzlik davr, antropogen-sanoat davr, hozirgi davr, yaqin va uzoq kelajak davr) tarqalishini bioiqlimiy modellashtirish natijalari keltirilgan.

Ikkala iqlim ssenariysida ham harorat (Bio4) va yog'ingarchilik mavsumiyligi (Bio15), yillik harorat diapazoni (Bio7), eng og'ir chorakda yog'ingarchilik miqdori (Bio19) *D. microcarpum* turlarining ko'payishga yaroqli yuqori va o'rta darajadagi maydonlarni qisqartirishi ilmiy jihatdan bashorat qilingan. 2070 yilga kelib Qirg'iziston (Talas) va Qozog'iston (Qoratog') hududlari asosiy "qaynoq nuqtalar"ga aylanadi. Farg'ona vodiysida o'rtacha va yuqori o'sish darajasidagi foydalanish uchun yaroqli maydonlar darajasi qisqsrishda davom etadi. Bundan tashqari, RCP8.5_2070s (1,4-2,6 °C) ssenariysi bo'yicha haroratning maksimal ko'tarilishi ham Eronning Tebriz hududlarida o'rtacha va yuqori yaroqli hududlarning shakllanganligidan dalolat beradi.

D. sabulosum uchun eng issiq kvartalning o'rtacha harorati (Bio11) va yog'ingarchilikning umumiy miqdori (Bio15) har ikkala iqlim ssenariylarida ham yuqori va o'rtacha yaroqlilik darajasiga ega bo'lgan ushbu turning ko'payish maydonlari qisqarishini ko'rsatdi. Bu holatda mos keladigan o'rtacha foydalanish

hududlari Qozog‘iston va Afg‘oniston tomon kengayib borayotganligini ko‘rish mumkin.

Kelajakda ikkala turni yetishtirish uchun yaroqli maydonlarning qisqarishini so‘nggi o‘n yilliklarda Markaziy Osiyoda haroratning sezilarli darajada ko‘tarilishi, ammo yog‘ingarchilik miqdorining sezilarli darajada kamayishi bilan izohlash mumkin. Tabiiy landshaft maydonlarining qisqarishiga ta’sir etuvchi potensial antropogen omillar ta’sirida *D. microcarpum* ning o‘sishi uchun eng qulay hududlar bilan bog‘liq vaziyat yanada yomonlashadi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu turni xalqaro mezonlar asosida baholash va muhofaza qilish choralari ishlab chiqish zarur.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi **ikkinchi bo‘limida** turlarni muhofaza qilish va Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) toifalari bo‘yicha baholash bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Kamyoblik maqomini aniqlashda geofazoviy ma’lumotlar tahlili, GeoCat (<http://geocat.kew.org/>) dasturidan foydalanildi. Baholash natijalariga ko‘ra, *D. microcarpum* global miqyosdagi mezonlarga ko‘ra “Yo‘qolib ketish xavfi ostida” (EN) toifasiga mansubligi, B1 b (ii,iii,iv) +2b (ii,iii,iv) +C1 2a1 (i,ii) va mintaqaviy darajadagi mezonlari bo‘yicha qo‘llanilganda, ular “Yo‘qolib ketish xavfi ostida” (EN), hamda zaif (VU) muhofazaga muhtoj ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Beshinchi bobning uchinchi bo‘limi “***D. microcarpum* turining laboratoriya sharoitida urug‘larini unib chiqishi**” deb nomlanib, urug‘larni sovutgichda (+5 °C) va termostatda (+24 °C) unib chiqish bo‘yicha tajriba natijalari keltirilgan. Tahlil natijalari sovuq stratifikatsiyaning zarurligi, 1 yoki 2 qishki tinim holatida bo‘lgan yoki uzoq muddatli sovuq stratifikatsiyada bo‘lgan urug‘larning yashovchanlik potentsiali yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Tajribamizda 6 oy va 12 oy saqlangan urug‘lar taqqoslandi. Samarali unib chiqish uchun maqbul harorat +4 °C - +5 °C bo‘lib, laboratoriya sharoitida urug‘larning o‘rtacha unuvchanligi 6 oy saqlanganda 55% ni, 12 oy saqlanganda esa 69% ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning “***ex situ* sharoitida *D. microcarpum* ni ko‘paytirish chora-tadbirlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bo‘limida *D. microcarpum* ni *ex-situ* sharoitida saqlab qolish chora-tadbirlari batafsil yoritilgan. Tur genofondini *ex situ* sharoitida saqlab qolish maqsadida Toshkent Botanika bog‘ida tirik kolleksiyasi yaratildi. Qo‘shimcha ravishda Andijon viloyatining Buloqboshi tumani va Namangan viloyatining Uychi tumanidagi sun‘iy ihota maydonlarida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi. Tadqiqotlar davomida ontogenezning yuvenil, immatur va virginil bosqichlari bilan bog‘liq ma’lumotlar o‘rganildi va tavsiflandi hamda kuzatishlar davom ettirilmoqda. *D. microcarpum* biologiyasining o‘ziga xos xususiyati uzoq virginil davri va hayot siklining oxirida bir marta gullashi bilan izohlanadi. *D. microcarpum* populyatsiyalarini muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular o‘z ichiga uning o‘sish joylarida tabiatni muhofaza qilish zonalarini yaratish, degradatsiyaga uchragan ekotizimlarni tiklash, mahalliy aholining ekologik xabardorligini oshirish va muntazam monitoring olib borishni qamrab oladi.

XULOSALAR

“*Dorema Don* (Apiaceae Lindl.) turkumi ayrim turlarining morfo-anatomik va eko-geografik xususiyatlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Dala tadqiqotlari natijasida O‘zbekiston florasida yo‘qolib ketgan deb hisoblangan *Dorema microcarpum* turining yangi o‘shish maydonlari aniqlangan. Kuchli antropogen ta’sir natijasida tarixiy o‘shish maydonlari yo‘qolib ketgan, mavjud populyatsiyalar esa Farg‘ona vodiysidagi qo‘riqlanadigan hududlardan uzoqda joylashganligi turning yo‘qolib ketish xavfini oshiradi.

2. *Dorema* turkumi turlarini *Ferula* turkumi turlaridan farqlash imkonini beruvchi vegetativ va generativ organlarning diagnostik jihatdan ahamiyatli morfologik belgilari aniqlangan. Bunday belgilarga barg plastinkasining o‘yilishi, jingalak trixomalarning mavjudligi, to‘pgulning piramidal ro‘vaksimonligi, shuningdek, mevada qirraning kuchsiz ifodalanganligi kiradi. Ushbu xususiyatlar o‘ziga xos moslashuvlarni ko‘rsatadi va oilada turkumning sistematik alohida ekanligini tasdiqlaydi.

3. *Dorema* va *Ferula* turkumlarida farq qiluvchi anatomik belgilar aniqlangan bo‘lib – barg mezofilining izopolisad turi, mezokarpning parenximatizatsiyasi, perikarpdagi ajratma kanallar tipi, meva endokarpining yirik hujayraliligidan iboratdir, bu esa strukturaviy botanikani taksonomik toifalarni aniqlashda muhimligini ta’kidlaydi.

4. *Dorema microcarpum* ni kulturaga kiritish bilvosita somatik embriogenez orqali amalga oshirilishi, bir eksplantidan 5-7 tagacha regenerant o‘simliklar olish bilan mikroklonal ko‘paytirishning yuqori samaradorligini ta’minlashi aniqlangan. *Dorema sabulosum* ni kulturaga kiritish jarayoni esa bilvosita organogenez yo‘li bilan amalga oshadi, bunda bitta eksplantidan 2-3 ta regenerant o‘simlik hosil bo‘ladi. *D. microcarpum* uchun eng maqbul eksplantlar urug‘dan unib chiqqan qismlar, jumladan gipokotil va ildizchalar bo‘lib, ular 70-80% gacha kallusogenez jarayonini namoyon qiladi. *D. sabulosum* uchun zigotali murtaklar 80% gacha kallus hosil bo‘lishini ta’minlaydigan eng samarali eksplantlar hisoblanadi. Ushbu farqlar *Dorema* turkumi turlari uchun mikroklonal ko‘paytirish usullari va sharoitlarini tanlashda turga xos yondashuv zarurligini ta’kidlaydi.

5. Bioiqlimiy modellashtirish natijasida, areali keskin qisqarib borayotgan *D. microcarpum* har ikki iqlim stsenariysi bo‘yicha haroratning 0.4–1.6°C va 1.4–2.6°C oralig‘ida ko‘tarilishi, turlarning morfologik belgilari bilan bevosita korrelyativ bog‘liqlik mavjud ekanligini ko‘rsatdi. *D. sabulosum* uchun sovuq chorakning o‘rtacha, yog‘ingarchilikning mavsumiyliги turning yuqori va o‘rta yaroqli o‘shish maydonlari qisqarishi bilan boradi. Har ikkala tur uchun ham kelajakdagi yaroqli o‘shish maydonlarini qisqarishi so‘nggi o‘n yilliklarda Markaziy Osiyoda haroratning sezilarli o‘shishi va yog‘ingarchilik darajasini kamayishi bilan bevosita bog‘liq.

6. *Dorema microcarpum* urug‘larning unib chiqishi uchun dastlabki sovuq stratifikatsiya zarurligi va optimal harorat +4 - +5 °C ekanligi aniqlangan.

Urug'larning unuvchanligi laboratoriya sharoitida 6 oy saqlanganda 55% ni, 12 oy saqlanganda 69% ni, dala sharoitida 12 oy saqlanganda 74-86% ni tashkil etadi (dekabr oyida ekilgan).

7. *D. microcarpum* IUCN kategoriyalari va kriteriyalari asosida baholandi (EN; B1 b (ii,iii,iv) +2b (ii,iii,iv) +C1 2a1 (i,ii)) va "Yo'qolib ketish xavfi ostidagi" tur sifatida Xalqaro Qizil kitobga tavsiya etildi. Bu tur tarqalgan hududlarning o'zlashtirilishi, urbanizatsiya jarayoni va tabiiy yashash joylarining fragmentatsiyasi bilan bog'liq. Turni saqlab qolish maqsadida Toshkent botanika bog'ida, Andijon va Namangan viloyatlarida *ex-situ* sharoitida tirik kolleksiyasi yaratildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.В.39.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ**

ИНСТИТУТ БОТАНИКИ

МИРЗАОЛИМОВА МОХИЗАР МУХАМАТКАРИМОВНА

**МОРФО-АНАТОМИЧЕСКИЕ И ЭКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ
ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ РОДА *DOREMA* DON
(APIACEAE LINDL.)**

03.00.05 – Ботаника

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2023.4.PhD/B1016

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.botany.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Шарипова Васи́ла Куйсиновна
доктор философии по биологическим наукам,
старший научный сотрудник

Официальные опоненты:

Хамраева Диловар Толибджоновна
доктор биологических наук,
старший научный сотрудник

Рудов Александр Вахтангович
кандидат биологических наук,
старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится 14 марта 2025 года в 15³⁰ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.B.39.01 при Институте ботаники (Адрес: 100125, г.Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники. Тел.: (+99871) 262-79-38, e-mail: botany@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники (зарегистрировано за № 69). Адрес: 100125, г.Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан 26 февраля 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 8 от 26 февраля 2025 года)



К.Ш. Тожибаев

Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.б.н., академик

У.Х. Кодиров

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
PhD, старший научный сотрудник

Х.Ф. Шомуродов

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сохранение биологического разнообразия является одной из ключевых задач охраны природы, привлекающей внимание во всем мире. Тем не менее, в последние десятилетия наблюдается стремительное сокращение видового разнообразия, вызванное ухудшением экологической ситуации на планете. Основные причины этого явления связаны с глобальным изменением климата, истощением природных ресурсов, экологическими катастрофами и интенсивной индустриальной деятельностью человека. Стоит подчеркнуть, что утрата любого таксона означает не только потерю элемента мировой флоры, но и потенциально ценного генетического ресурса, который может служить источником биологически активных соединений.

В мире в определении растительного сырья с полезным значением и стандартизации лекарственных растительных продуктов особое внимание уделяется на диагностике на основе характерных в морфологическом и анатомическом строении признаков вегетативных и генеративных органов.

Род *Dorema*, принадлежащий к семейству Ариáceае, включает перспективные виды, обладающие лекарственным потенциалом и относящиеся к числу редких растений. Этот род считается одним из наиболее сложных в систематическом отношении. В Узбекистане распространены два вида: *Dorema microcarpum* и *Dorema sabulosum*, являющиеся эндемиками Средней Азии. В результате усиления антропогенного прессинга численность популяций этих редких видов в естественных местообитаниях сокращается. Актуальной задачей является всестороннее изучение биологии данных растений. Разработка методов сохранения на основе их биологических особенностей позволит не только защитить эти ценные для науки виды, но и глубже понять их адаптационные возможности, а также прогнозировать перспективы их интродукции.

В настоящее время в нашей стране, осуществляются мероприятия по охране объектов растительного мира, сохранению биологического разнообразия и их рациональному использованию. В Постановлении “О мерах по охране окружающей среды и организации деятельности государственных органов в сфере экологического контроля”¹ поставлена задача “Внедрение системы стимулирования и конкретных механизмов восстановления, увеличения и сохранения биоразнообразия”. Исходя из этой задачи, определение причин сокращения популяции редких и эндемичных представителей рода *Dorema*, создание карт их распространения, а также изучение морфологических, анатомических биологических и онтогенетических особенностей имеют важное научное и практическое значение.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года

